



“Alisher Navoiy va XXI asr”

9-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Bursa, 2024-yil 8-fevral

“Ali Şir Nevai ve 21. yüzyıl”

9. ULUSLARARASI KONFERANSI

Taşkent-Bursa, 8 Şubat 2024

“Alisher Navo'i and the 21st century”

9th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Bursa, February 8, 2024



نويزىت بولغاى پىرىدى رەھىم
كەرىشىپ يوق شاندىن
كەم كەم ئەلسىن علۇق دەرىغۇلۇم آندىن جەرى

“HAYRATUL ABROR”DAGI “TOT” SO‘ZI HAQIDA

Dehqonov Akramjon

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
dehqonov1967@gmail.com*

Alisher Navoiyning “Xamsa” asari tarkibiga kirgan birinchi doston – “Hayratul abror”ning o‘n ikkinchi maqolatida qalam vasfida so‘z yuritib bo‘lgach, muallif bevosita kotiblarni tavsiflashga o‘tadi. Kotiblarni avvalo ikki toifaga – maqbul va mardud qismga ajratadi. Mardud, ya’ni rad qilingan salbiy toifa kotiblar avvalo dorulqazo kotiblari- hukumat idoralariningadolatsiz kotiblari ekanligini ta’kidlaydi. Bunday kotiblar birinchi navbatda xalqning haqqiga xiyonat qilishga yo‘l ochib beruvchilar sifatida ko‘rsatiladi:

Avval erur kotibi dorul qazo,

Ish anga noshar’ig‘a bermak rizo. [Alisher Navoiy, 1991: 221]

Avvalgi toifa – dorul qazo (hukumat idorasi) kotiblaridir. Ularning ishi noshar’iy ishga rozilik berishdir.

Shundan so‘ng Navoiy bunday kotiblarning yozma roziliklari – ruxsatlari tufayli yurt ichida ro‘y beradigan zulm,adolatsizliklar haqida kuyunib yozadi. Keyin kotiblarning yana bir toifasi omili devon – soliq yig‘uvchilarning boshlig‘i haqida so‘z yuritadi. Bunday kotiblarning qilgan ishiga hatto dev ham hayron qolishini aytadi.

Bularning yozma ruxsatini olgan ijrochilar xalqning ichiga kirib, uning molini nohaq – zulm bilan olib, yurtga behisob kulfatlar keltirishini tasvirlaydi.

Alisher Navoiy bunday ijrochi – zolimlarning ishlarini aytar ekan, jumladan, shunday deydi:

Chahdagи tuzm arpasini oti yeb,

Uyda tovug‘larni suruk toti yeb,

Hosil o‘shul uyga balo doribon,

Qaysi balo, balki vabo doribon. [Alisher Navoiy, 1991: 227]

(Chuqurga ko‘milgan urug‘lik arpani mana shu soliq yig‘uvchilarning oti yeydi. Uydagi tovuqlarni esa bir gala totlar yeydi. Natijada o‘sha uyga balo keladi, balo emas, balki vabo keladi).

Bu she’riy parchadagi “tot” so‘zi bizning e’tiborimizni tortdi. Shuningdek, “Hayratul abror”ning boshqa bir o‘rnida – o‘ninch maloqatning qoliplovchi hikoyasi – sher bilan durroj haqidagi qissada ham “tot” so‘zi zikr qilinadi. Durroj bir necha yolg‘on chaqiriqlar bilan sherni ovora qilgach, rostakamiga ovchining tuzog‘iga tushadi va dod-voy qilib sherni yordamga chaqiradi:

Qichqiribon dom aro ul mubtalo,

Necha dedi: “Tot meni tuttilo” [Alisher Navoiy, 1991: 221]

(Durroj tuzoqqa tushgach, qichqirib: “Tot meni tutib oldi” deb yordamga chaqirdi).

Birinchi misolimizdagi “Uyda tovug‘larni suruk toti yeb...” misrasidagi “suruk toti” jumlesi “bir gala totlar” degan ma’noni anglatadi. “Suruk” so‘zi odatda insonlardan tashkil topgan jamoaga nisbatan ishlatilmaydi. Balki hayvonlarning to‘dasiga nisbatan qo‘llanadi. Bu o‘rinda Navoiy “tot” degan bir qavmni nazarda tutayotgani gapning siyoqidan ma’lum bo‘lib turibdi.

Lekin ularni “suruk” so‘zi bilan sifatlashi bu qavmning zolim, xiyonatkor, ma’naviy jihatdan hayvonga yaqin bir jamoa ekanini anglatyapti. Keyingi parchadagi “Necha dedi: “Tot meni tuttilo” misrasida ham Durroj o‘zini bir zolim kishi tutib olganini aytmoqda.

Biz bu so‘zning arab yozuvida qanday bo‘lishiga qiziqib “Hayratul abror”ning arab yozuvidagi ilmiy-tanqidiy matniga qaradik. Bu manbada biz keltirgan misollar quyidagicha berilgan:

چە داغى تخم ارپە سىنى آتى بىب
ايندا تاولىغانى سوروك تاتى بىب
قېقىر بىان دام ارا اول مېتلا

[Nijça didei tat minni tonu] [Alisher Navoiy, 1970: 112, 115]

Demak, arabchada “tot” so‘zi تات shaklida yozilgan. Biz bu so‘zning ma’nosini mumtoz asarlar uchun chiqarilgan ko‘p lug‘atlarda uchratmadik. Faqat 2018-yilda nashr etilgan Manzar Abdulxayrov tuzgan “Navoiy asarlarining izohli lug‘ati”da bu so‘z quyidagicha izohlangan: “tot (تات) Islomni qabul qilmagan uyg‘ur yoki xitoylar”.

“Devoni lug‘otit-turk”da esa bu so‘zni olti o‘rinda uchratdik.

Birinchi misol:

“Shoir shunday degan:

Keldi mang'a tat,

Aydim emdi yat.

Qushqa bo'lup yet,

Seni tilar us, bo'ri.

Aytmoqdaki: “Menga bir tot (hujum qilib) keldi, unga men: “Endi qushlarga yem bo‘l, qushlar, qurtlar seni kutayotirlar deb (uni o‘ldirdim). [Mening oldimga bir uyg‘ur kofiri (hujum qilib) keldi. Men: “Seni yirtqichlar, bo‘rilar bурдаласин, qushlarga yem bo‘l, deb uni o‘ldirdim] [Mahmud Koshg‘ariy, 2017: 29].

Ikkinci misol:

تەغىچە tawğač (tavg‘ach) – uyg‘ur. U tatdir.

Ular Sin, ya’ni tiTawğačda yashaydilar. [Mahmud Koshg‘ariy, 2017: 181].

Uchinchi misol:

تەن تەغىچە tat tawğač (tat tavg‘ach) – forsiy va turk demakdir. Birinchi so‘z tat – “fors”, ikkinchi so‘z tawğač – “turk” o‘rnida qo‘llanadi. [Mahmud Koshg‘ariy, 2017: 181].

To‘rtinchi misol:

(Shoir) shunday degan:

Bechkam urup atlaqa,

Uyg'urdag'i tatlaqa

O'g'ri yovuz itlaqa

Qushlar kabi uchtimiz.

Aytmoqdaki: Otlarga belgi taqib, uyg‘ur (eli)dagi totlarga, ya’ni o‘g‘ri, muttaham itlarga qasd qildik. Qush uchgandek uchib, ularning ustiga yopirildik. [Mahmud Koshg‘ariy, 2017: 191].

Beshinchi misol:

تەن tat – butun turklarning nazdida fors. Maqolda shunday kelgan: “Tatiğ közrä, tikänig tübrä. Ma’nosi: “Tatning ko‘ziga ur, tikanning tubidan kes”. Yag‘ma, tuxsilar nazdida bu so‘z islom dinini qabul qilmagan uyg‘urlardir. Men buni o‘z shaharlarida ularning o‘zidan eshitdim. tat tawğač – uyg‘ular va şin liklar demakdir. Bu ibora tat so‘zini uyg‘urlarga nisbatan ham, şin liklarga nisbatan ham qo‘llanishidan darak beradi. Maqol ma’nosи ham shunga olib boradi. Chunki ular vafosizdir: tikanning jazosi tomiridan uzish bo‘lsa, uyg‘urga lozimi ko‘ziga urishdir. Boshqa bir maqolda shunday kelgan: Tatsiz türk bolmas, başsız börk bolmas. Ma’nosi: Forslar bor yerda turklar albatta bor. Boshsiz bo‘rk bo‘lmagani kabi, turksiz fors bo‘lmaydi. Bosh bor yerda bo‘rk, albatta, bor”. [Mahmud Koshg‘ariy, 2017: 295].

Oltinchi misol:

ش / ش tat / tut – qilich va pichoqlar ustida paydo bo‘ladigan zang. Maqolda (shunday kelgan): Qilič tatigsa, iş yunčır, er tatıgsa, et tunčır. Ma’nosи: “Qilich zanglasa, botirning holi yomon bo‘ladi. Er [ya’ni turk] tatlashsa [eroniylar rusumini tutsa], go’shti o‘zgaradi, hidlanadi”. Bu maqol botirlikka undalgan kishiga qarata har jinsning o‘z jinsi bilan yashashi to‘g‘risida aytildi”. [Mahmud Koshg‘ariy, 2017: 295].

“Tat” so‘zini XVII asr yozma obidasi bo‘lgan “Shajarayi tarokima” asarida ham uchratdik. Asar muallifi Abulg‘oziy Bahodirxon IX-X asrlardagi voqealar haqida so‘z yuritar ekan, shunday deydi: “...ul vaqtida (IX-X asrlarda – A.D.) Iroq-u Xuroson va Movarounnahrning podshohlari va sipohiyllari va ra’iyatlari barchalari tot erdi, totdin o‘zga kishi yo‘q erdi...” [Abulg‘oziy Bahodirxon, 1995: 15].

Keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, “tot” so‘zi XI-XVII asrga oid yozma manbalarimizda uchraydi va quyidagi ma’nolarni anglatган:

1. Uyg'ur millati ichidagi islomni qabul qilmagan bir qavmning nomi.
 2. Forslar eroniyarlarni "tat" deyishgan.
 3. O'g'ri, qarqochilikni, zulmni kasb qilib olgan bir qavm.

Lekin ushbu so‘z juda ko‘pchilik qadimgi yozma manbalarimizda uchramaydi. Alisher Navoiy “Hayratul abror” dostonida “tot” so‘zini ma’lum bir millatning nomi sifatida emas, balki zulmni, talonchilikni kasb qilib olgan ma’lum bir toifaning nomi sifatida ishlatgan. Navoiy katta ehtimol bilan Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridan xabardor bo‘lmagan. Lekin Navoiy “tot” so‘zidan nazarda tutgan ma’nolar “Devon”da bayon qilingan ma’nolarga to‘liq mos tushadi.

“Hayratul abror” dostonida “tot” so‘zini qo‘llash bilan Navoiy jamiyatning juda ozchilik vakillariga tanish bo‘lgan, yo‘qolib borayotgan so‘zga hayot bag‘ishlagan. Zero, so‘zlarga hayot bag‘ishlash Navoiy ijodining yorqin qirralaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulxayr, Manzar. 2018. *Navoiy asarlarining izohli lug‘ati*. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – B. 812.
 2. Abulg‘oziy Bahodirxon. 1995. Shajarayi tarokima. – T.: Fan. – B. 68.
 3. Alisher Navoiy. 1970. *Hayratul abror*. Ilmiy-tanqidiy matn. Tuzuvchi Porso Shamsiyev. – T.: Fan. – B. 234.
 4. Alisher Navoiy. 1991. *Mukammal asarlar to‘plami*. Yigirma tomlik. Yettinchi tom. – T.: Fan. – B. 390.
 5. Mahmud Koshg‘ariy. 2017. *Devonu lug‘otit-turk* (Turkiy so‘zlar devoni). – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU. – B. 768.

TEZISLAR

Axmedova Shoira. Navoiy va Jomiy maktublarida badiiy ijodga munosabat	586
Abdurahmonova Barno, M. Solijonova. Furqat ijodida navoiyona ohanglar	589
Abdullayeva Marg'uba. Maqolat va hikoyat uyg'unligi	592
Ashirmatova Madina, Xojimatova Barno. Alisher Navoiy asarlarining Turkiya adabiyoti va adabiyotshunosligiga ta'siri	596
Abduraimova Xafiza. Alisher Navoiy g'azaliyotida sad timsoli	599
Nazora Bekova. Alisher Navoiy adabiy merosi tadqiqida Faxriy Hirotiy "Radoyif ul-ash'or" asarining o'rni	603
Dehqonov Akramjon. "Hayratul abror"dagi "tot" so'zi haqida	607
Jamolova Zilola. Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asarida adabiy obzor janriga xos unsurlarning tahlili	610
Jo'raboyev Nosir. Alisher Navoiyning tarixiy asarlari manbalari	614
Jo'rayeva Sobira. Navoiy va Shukuriy	617
Dilfuza Zaripova. Huvaydo ijodida Navoiy an'analari	620
Iskandarov Fayzulla. "Farhod va Shirin" dostonidagi na't boblarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari	624
Ibotova M. Alisher Navoiy lirkasida ruhning badiiy ifodasi	627
Meliyev Suvon. Alisher Navoiy va Chingiz Aytmamatov: qiyos hadlari	630
Babanazar Murtazayev. "Sab'ai sayyor" va "Hasht bihisht"da Dilorom obrazi	632
Mamatqulov Muzaffar, Fayzullayeva Obidaxon. Tuyuq janri takomili va Alisher Navoiy tuyuqlari	639
Nazarov Nasriddin. Alisher Navoi phenomenon in the development of cultural processes	643
Rahmatov Mardon. Alisher Navoiy g'azallarida nutq subyekti	647
Rahmonov Vahob, Nishonov Shavkat. Navoiyona badiiyat mo'jizalari	652
Rajabova Ma'rifikat. Alisher Navoiy she'riyatida ruh sayrining badiiy talqini	654
Rahmonova Zulayho. Jonimni habib ayog'i tufrog'ig'a sol..	657
Saidova Rayhon. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida ijod va ijod ahli haqidagi qarashlari tahlili	660
Sanakulov Ulug'bek. Alisher Navoiy she'riyatda Layli Va Majnun timsollari talqini an'anasi	664
To'xtamuratov Furqat. Qo'lyozma bayozda Navoiy g'azallari matniy tadqiqi	668
Temirov Farrux. Sadreddin Ayniy – Navoiy ijodiy merosi tadqiqotchisi	671
Tojiyev Dostonjon. Historical significance of "Alisher Navoi international award"	674
Tojixon Sabitova. Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy asarlarida shohlar vasfi	678
Tuychiyeva Maxfuza. Navoiy ijodini o'rganish tajribasi bir ruboiy misolida	681
Xalliyeva Gulnoz. "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida qiyosiy metodologiya asoslari	685
Xo'jayev Tohir. Navoiy g'azallaridagi ayrim obrazlar xususida	688
Xasanova Barno. Navoiyning peyzaj lirkasi	691
Ulug'murodova Kamola. "Navodir ush-shabob"da Layli obrazining badiiy talqini	694
Haydarova Gulhayo. Alisher Navoiy an'analari va XX asr o'zbek g'azaliyoti	698